

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
170 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	



GEOLOGIYA KORXONALARINING INVESTITSION SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi

Toshkent davlat texnika universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada geologiya korxonalarining investitsion faoliyati, uni tashkil etish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Geologik-qidiruv ishlari o'ziga xos riskli va kapital talab qiluvchi jarayon bo'lib, samarali investitsiya jalb qilinmasa, natijaviylikka erishish mushkul. Shu bois, maqolada geologiya korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash va zamonaviy menejment usullarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ilmiy-tahliliy asosda O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirilib, geologiya sohasiga investitsiya jalb qilishda institutsional va infratuzilmaviy muammolar yoritilgan. Maqola iqtisodchi mutaxassislar, siyosat ishlab chiquvchilar va geologik sohada faoliyat yurituvchi korxonalar rahbarlari uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: investitsion samaradorlik, geologik korxona, investitsiya, risk, iqtisodiy tahlil, loyiha, moliyalash-tirish, infratuzilma.

Abstract: This article analyzes the current issues of investment activities of Geosciences, its organization and improvement of efficiency. Geological exploration is a kind of risky and capital-intensive process, and it is difficult to achieve profitability if an effective investment is not attracted. Therefore, the article developed proposals to increase the investment attractiveness of Geosciences, ensure financial stability and introduce modern management methods. On a scientific and analytical basis, the experience of Uzbekistan and foreign countries was compared, and institutional and infrastructural problems were highlighted in attracting investment in the field of geology. The article is of practical importance for economists, policy makers and heads of enterprises operating in the geological field.

Keywords: investment efficiency, geological enterprise, investment, risk, economic analysis, project, financing, infrastructure.

Аннотация: В данной статье анализируется инвестиционная деятельность геологических предприятий, рассматриваются актуальные вопросы её организации и повышения эффективности. Геологоразведочные работы являются рискованными и капиталоемкими процессами, и без эффективного привлечения инвестиций достичь высоких результатов сложно. В статье предложены меры по повышению инвестиционной привлекательности геологических предприятий, обеспечению их финансовой устойчивости и внедрению современных методов управления.

Ключевые слова: инвестиционная эффективность, геологическое предприятие, инвестиции, риск, экономический анализ, проект, финансирование, инфраструктура.

KIRISH

Geologiya sohasi – har bir mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i bo'lib, yer osti boyliklarini aniqlash, resurslarni baholash va sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi. Biroq, ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalar oldida turgan eng muhim masalalardan biri – bu investitsion mablag'larni yetarli va samarali jalb qilish masalasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Geologiya sohasini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori bilan sohani modernizatsiya qilish, xususiy investorlarni jalb etish va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash ko'zda tutilgan. Ushbu chora-tadbirlar sohaning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali hanuz sarmoyadorlar uchun ko'plab to'siqlar mavjud.

Maqolaning asosiy maqsadi – geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni hal etish uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Geologiya va investitsion faoliyatga oid ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

1. Xolmurodov X. (2021) o'z asarida geologik-qidiruv ishlari iqtisodiy samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqqan. U investitsiyalarning uzoq muddatli rentabellik ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadi.

2. Karimov A. (2019) investitsion loyihalarni amalga oshirishda risklarni kamaytirish va ularni moliyaviy tahlil qilish metodikasini taklif etgan.

3. Porter M. (1985) tomonidan ishlab chiqilgan "Raqobat ustunligi" nazariyasi asosida tarmoqlar o'rtasida investitsiya oqimlarini boshqarish va raqobat muhitini yaratish mexanizmlari bayon etilgan.

4. North D. (1990) institutsional yondashuv orqali investitsion qarorlar qabul qilishda siyosiy va huquqiy muhitning roli yoritilgan.

5. O'zbekiston Respublikasi Geologiya qo'mitasining yillik hisobotlari (2021–2023 yillar) esa amaliy jihatdan real holatni tahlil qilishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, geologiya tarmog'ida investitsiyalarning rentabelligini oshirish uchun faqat texnik yoki iqtisodiy yechimlar emas, balki institutsional, boshqaruv va axborot-kommunikatsion omillarni ham hisobga olish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola ilmiy-tadqiqot yo'nalishida quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslangan:

Geologiya sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (2020-2023 yy)

Yil	Investitsiyalar hajmi (mlrd so'mda)	Yillik o'sish (%)	Real rentabellik (%)
2020	350	-	12,5
2021	520	+48,6	13,2
2022	870	+67,3	14,7
2023	1 100	+26,4	16,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi hisobotlari asosida.

Tahlil:

- investitsiya hajmi 4 yil ichida 3 barobarga oshgan, bu esa davlat va xususiy sektor tomonidan geologiya sohasiga bo'lgan qiziqish ortganini ko'rsatadi;
- yillik o'sish 2021-2022 yillarda keskin bo'lgan, bu davrda bir necha yangi konlar aniqlangan va xorijiy investorlar jalb qilingan;
- real rentabellik nisbatan past bo'lishiga qaramay, barqaror o'sishga ega. Bu esa sohada hali foydalanilmagan salohiyat mavjudligini anglatadi va investitsion samaradorlik pastligidan dalolat beradi.

SWOT tahlili: Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligi nuqtayi nazaridan quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

Kuchli tomonlar (Strengths)	Izoh
Boy mineral resurslar	O'zbekiston ko'plab strategic xomashyolarga (oltin, uran, mis, volfram va boshqalar) ega bo'lib, bu geologiya sohasining investitsion jozibadorligini oshiradi
Strategik geografik joylashuv	Markaziy Osiyo markazida joylashgan O'zbekiston eksport imkoniyatlari va logistic qulayliklarga ega
Davlat tomonidan sohani qo'llab-quvvatlash	Geologiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va qarorlar mavjud (masalan, PQ-152-sonli qaror, 2022-yil)
Xalqaro hamkorlik aloqalari	Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa mamalakatlar bilan geologic sohada qo'shma loyihalar olib borilmoqda



Zaif tomonlar (Weaknesses)	Izoh
Investitsion risklarning yuqoriligi	Geologik qidiruv ishlari uzoq muddatli va natijasi kafolatlanmagan, bu esa investorlar uchun xavf tug'diradi
Yetarli darajadagi texnologik jihozlanmaganlik	Aksariyat geologik korxonalarda eski uskunalar va raqamli tizimlarning yetishmasligi mavjud
Kadrlar salohiyatining pastligi	Zamonaviy geologik uslublarni biladigan mutaxassislar soni kam, yoshlar bu sohaga kam qiziqmoqda
Loyiha oldi hujjatlar sifatsizligi	Investitsion loyihalar texnik-iqtisodiy asoslari yetarli darajada puxta tayyorlanmayapti
Imkoniyatlar (Opportunities)	Izoh
Xorijiy investorlar uchun ochiq siyosat	O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar xorijiy sarmoyadorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda
Raqamlashtirish va IT texnologiyalarini joriy etish	Geoma'lumotlar va resurslarni elektron xaritalash imkoniyati sarmoya kiritishni yengillashtiradi
Ekologik toza texnologiyalarni jalb etish	Yashil texnologiyalar asosidagi geologik ishlov berish investorlar uchun ijobiy omil bo'lishi mumkin
Yangi konlarni kashf etish imkoniyati	Hali o'rganilmagan hududlarda kata resurs salohiyati mavjud
Kamchiliklar	Izoh
Xalqaro kon'yunkturaning o'zgaruvchanligi	Xomashyo narxlarining pasayishi investitsion jozibadorlikka salbiy ta'sir qiladi
Byurokratik to'siqlar va tartibotlar	Ruxsatnoma olish va hujjat aylanishidagi murakkabliklar sarmoya jalb qilishga to'sqinlik qiladi
Tabiiy-iqlim sharoitlari xavfi	Ayrim hududlarda tabiiy sharoitlar (zich to'g'li joylar, seysmik zonalar)ishlashni murakkablashtiradi
Mintaqaviy siyosiy beqarorlik	Tashqi siyosiy muhitdagi noaniqliklar xorijiy investorlar uchun xavf sifatida qabul qilinadi

Ekspert baholash metodi:

Tadqiqotda ekspert baholash metodi qo'llanilib, geologiya sohasi va investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan mutaxassislarning fikrlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yordamida nazariy asoslardan tashqari, real amaliyotdagi muammo va imkoniyatlarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

Ekspert bahosi asosida quyidagilar tavsiya etiladi:

- Geologiya sohasida kafolatli investitsiya sug'urtasi tizimini joriy etish;
- Raqamlashtirilgan axborot portallarini yaratish orqali shaffoflikni oshirish;
- -Davlat tomonidan infratuzilma bilan ta'minlash va kafolatli shartnomalar asosida investorlar bilan hamkorlik qilish;
- Geologik qidiruv jarayonlarida innovatsion va IT salohiyatga ega kadrlar tayyorlash.
- Komparativ tahlil (taqqoslash yondashuvi)

Geologik-qidiruv sohasiga sarmoya jalb qilishda har bir mamlakat o'zining iqtisodiy siyosati, infratuzilmasi va institutsional tizimiga asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tajribasi Qozog'iston, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlarning investitsion siyosati bilan taqqoslab tahlil qilindi.

Geologik ma'lumotlarning ochiqligi va raqamlashtirilganligi

Mamlakat	Geoma'lumotlar ochiqligi	Onlayn platforma mavjudligi	Investorlar uchun qulaylik
O'zbekiston	Cheklangan, qisman ochiq	Yangi portallar ishlab chiqilmoqda	Past – to'liq ochiq emas
Qozog'iston	To'liq ochiq, keng bazaga ega	"Nedra" platformasi mavjud	Yuqori

Kanada	To'liq raqamlashtirilgan	"Geoscience Data Repository"	Juda yuqori
Avstraliya	To'liq raqamlashtirilgan	"Geoscience Australia" tizimi	Juda yuqori

Xulosa: O'zbekistonda geologik axborotlarni to'liq raqamlashtirish ishlari hali yakuniga yetmagan bo'lib, bu salohiyatli investorlar uchun muhim to'siqlardan biri hisoblanadi.

Investitsion xavflarni kamaytirish strategiyalari

Mamlakat	Sug'urta va kafolat tizimi	DXSh loyihalari mavjudligi	Riskni boshqarish mexanizmi
O'zbekiston	Yo'q (joriy etilmagan)	Yangi bosqichda	Imkoniyatlar cheklangan
Qozog'iston	Maxsus kafolat jamg'armalari	Faol amalga oshirilmoqda	Kuchli normativ baza
Kanada	Sug'urta kompaniyalari orqali	Raqobatbardosh DXSh modeli	Risklarni tahlil qilish tizimi mavjud
Avstraliya	Davlat kafolati va subvensiyalar	Ilg'or DXSh amaliyoti	Mukammal tahliliy yondashuv

Xulosa: O'zbekiston uchun Qozog'iston va Avstraliya tajribasini o'rganish va moslashtirish zarur, chunki bu mamlakatlarda investorlarni rag'batlantirish tizimi ancha takomillashgan.

Soliq va bojxona imtiyozlari

Mamlakat	Soliq imtiyozlari muddati	Eksport boji	Xorijiy investorlar uchun maxsus shartlar
O'zbekiston	3–5 yil, faqat ayrim hududlarda	Bor	Yo'q
Qozog'iston	10 yilgacha, maxsus zonalarda	Yo'q	Ha
Kanada	10–15 yil, grant asosida	Yo'q	Ha
Avstraliya	5–10 yil, tadqiqotga asoslangan	Yo'q	Ha

Xulosa: O'zbekiston soliq imtiyozlari borasida ayrim ijobiy choralar ko'rayotgan bo'lsa-da, ularni soddalashtirish va barcha hududlarda joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishi mumkin.

Umumiy xulosa:

O'zbekiston bugungi kunda geologiya sohasida xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish borasida Qozog'iston, Kanada va Avstraliya kabi ilg'or tajribalarni to'liq joriy qilmagan. Biroq, mavjud islohotlar davom ettirilsa va:

- Geologik ma'lumotlar ochiqligi ta'minlansa;
- Sug'urta va kafolat tizimi yaratilsa;
- DXSh mexanizmlari keng joriy qilinsa;
- Soliq imtiyozlari oddiylashtirilsa, investitsion samaradorlikni keskin oshirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston geologiya korxonalarida investitsion faoliyatni tashkil etishda jiddiy tizimli muammolar mavjud. Bu muammolar texnologik, tashkiliy, institutsional hamda infrazuzilmaviy darajalarda namoyon bo'lmoqda.

Avvalo, statistik tahlillar asosida so'nggi yillarda geologiya sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi oshganini ko'rish mumkin. Biroq ularning real rentabelligi past bo'lib qolmoqda, bu esa investitsiya jalb qilishda samaradorlikka erishilmayotganini anglatadi. Ya'ni, miqdoriy o'sish mavjud, lekin sifat jihatidan resurslar yetarlicha boshqarilmayapti.


SWOT-tahlil geologik faoliyatda mavjud bo'lgan kuchli jihatlar – tabiiy resurslar bazasi va strategik joylashuv – to'liq darajada ishga solinmayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, zaif tomonlar – texnologik eskirish, kadrlar



tanqisligi va yopiq axborot muhitining mavjudligi – sohaning jozibadorligini pasaytirmoqda. Tahdidlar orasida xalqaro kon'yunkturaning o'zgaruvchanligi va siyosiy noaniqliklar ham sarmoyadorlar uchun xavf tug'diradi.

Ekspert baholashlar esa sohadagi islohotlarga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlaydi. 80% dan ortiq mutaxassislar investitsion risklar yuqori ekanini, ularni boshqarish mexanizmlarining zaifligini tan olgan. Shu bilan birga, 100% ekspertlar raqamlashtirishni zarur deb bilgan, bu esa davlat siyosati uchun aniq yo'nalishni belgilaydi.

Komparativ tahlil orqali O'zbekistonning Qozog'iston, Kanada va Avstraliya kabi mamlakatlardan ortda qolayotgan jihatlari aniqlangan (1-rasm). Bunday jihatlarni qatoriga ochiq geoma'lumotlar tizimining yo'qligi, sug'urta va kafolat mexanizmlarining shakllanmaganligi, soliqlik imtiyozlarining cheklanganligi kiradi. Boshqa davlatlar tajribasini o'rganish va moslashtirish orqali bu holatni o'zgartirish mumkin.



1-rasm: Geologiya sohasida investitsion muhit: xalqaro taqqoslash

Umumiy natijalar:

Sanoatga asos bo'ladigan geologik faoliyatda investitsion samaradorlikni oshirish uchun institutsional islohotlar zarur;

- O'zbekiston investitsion siyosatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishi lozim;
- Investorlarga axborot, moliyaviy va huquqiy xavfsizlik taqdim etilishi kerak;
- Tahlil natijalariga asoslanib ishlab chiqilgan takliflar esa konkret amaliy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, statistik tahlillar, ekspert baholari, SWOT va komparativ tahlillar asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. Geologiya sohasida investitsion faoliyat uzoq muddatli va yuqori xavfli bo'lib, investorlar uchun kafolatlar, shaffof axborot va texnik infratuzilma yetishmovchiligi asosiy to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi.
2. Korxonalarning texnologik jihozlanish darajasi past bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayoni sust kechishiga sabab bo'ladi.
3. Geologik ma'lumotlar bazasining raqamlashtirilmaganligi va uning yopiq holati sarmoyadorlar uchun qaror qabul qilishda noqulaylik tug'diradi.
4. Xorijiy tajribalar tahlili (Qozog'iston, Kanada, Avstraliya) asosida O'zbekiston uchun samarali strategiyalarni joriy etish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Takliflar:

Tadqiqot natijalariga asoslanib, geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish uchun quyidagi kompleks takliflar ishlab chiqildi:

1. Geologik ma'lumotlarni raqamlashtirish va ochiq axborot portalini yaratish:
-Investorlar uchun onlayn xaritalar, konlar bo'yicha hisobotlar va risk tahlillari taqdim etilishi kerak.
2. Investitsion xavflarni boshqarish bo'yicha maxsus sug'urta va kafolat mexanizmini ishlab chiqish:
-Davlat ishtirokidagi kafolat jamg'armasi tashkil etilib, risklar kompensatsiya qilinadigan tartiblar ishlab chiqilishi lozim.
3. Texnologik modernizatsiya uchun xorijiy texnologiyalarni subsidiyali olib kirish tizimini yaratish:
-Yangi uskunalarni olib kiruvchi korxonalarga 0% bojxona va QQS imtiyozlari berilishi taklif qilinadi.
4. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida geologik klasterlar tashkil etish:
-Bir hududda bir nechta korxona, oliy ta'lim va ilmiy markazlar hamkorlikda faoliyat yuritadigan zonalar shakllantiriladi.
5. Geologiya va investitsiya sohasida zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislarni tayyorlash:
-Universitetlar va ilmiy markazlarda "Geologiya va investitsion menejment" kabi ixtisosliklar joriy etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xolmurodov X.X. Geologik qidiruv ishlarining iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 240 b.
2. Karimov A.A. Investitsion faoliyatni boshqarish. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.
3. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985. – 592 p.
4. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 159 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi. 2021–2023 yillar uchun geologik faoliyat bo'yicha yillik hisobotlar. – Toshkent: Rasmiy nashrlar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-152-sonli qarori. "Geologiya sohasini rivojlantirish to'g'risida". – <https://lex.uz>
7. World Bank. Extractive Industries Value Chain: A Comprehensive Integrated Approach to Developing Extractive Industries. – Washington, D.C.: The World Bank, 2020.
8. UNCTAD. World Investment Report 2022: International tax reforms and sustainable investment. – Geneva: United Nations, 2022.
9. OECD. Investment Policy Reviews: Kazakhstan. – Paris: OECD Publishing, 2017.
10. Geoscience Australia. Open Data Platform. – <https://www.ga.gov.au>
11. Юсупходжаева Г. Б. Цифровая транспортно-логистическая интеллектуальная платформа в Узбекистане // Interpretation and researches. – 2024. – №. 2 (24).
12. Yusupkhodjaeva G. B. Management Of Metallurgical Enterprises Based On The Introduction Of Financial Analysis // The Peerian Journal. – 2024. – T. 28. – C. 21-26.
13. Yusupkhodjaeva G. B. Formation and development of the digital economy problems and risks // World Economics and Finance Bulletin. – 2024. – T. 32. – C. 64-69.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100